



O'ZBEK VA NEMIS TILLARDA QO'SHMA SO'ZLARNING YASALISHI, O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI.

Qilicheva Shahlo Marksova

Urganch Davlat Universiteti „Roman-German

filologiyasi” kafedrasi o'qituvchisi

Email:shaxlo.qlicheva@mail.ru Tel: +998932809996

Xorazm, O'zbeiston

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek va nemis tillaridagi qo'shma otlar qiyosiy o'rganildi. Tadqiqot davomida ikki tildagi qo'shma so'zlarning umumiy va farqli jihatlari aniqlanib, ularning morfologik va semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqotimizda qo'shma so'zlarni har tomonlama chuqur tahlil qilishga intildik. Xususan, ularning qanday so'z turkumlariga mansub bo'lgan birliklardan tashkil topgani, shuningdek, tayyor holatda mavjud bo'lgan qo'shma so'zlarning ham qaysi so'z turkumlariga oid ekani e'tibordan chetda qoldirilmadi. Maqolamizda ushbu masalaga doir qisqacha ma'lumotlar hamda mualliflik mulohazalari bayon qilingan. Masalani yanada aniqroq tushuntirish maqsadida, keyingi qismda bevosita misollar asosida yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar. *Qo'shma so'z, attributive, so'z turkum, qo'shma ot, juft va takroriy*

В данной статье проводится сравнительное изучение сложных существительных в узбекском и немецком языках. В ходе исследования были выявлены общие и различные стороны сложных слов в двух языках, проанализированы их морфологические и семантические особенности. В нашем исследовании мы стремились провести всесторонний и глубокий анализ сложных слов. В частности, мы не обошли вниманием и словообразовательные гнезда, из которых они состоят, а также словообразовательные гнезда, к которым относятся сложные слова, существующие в готовом виде. В нашей статье даны краткие сведения по данному вопросу и комментарии автора. Для того чтобы более наглядно прояснить вопрос, следующий раздел будет проиллюстрирован прямыми примерами.

Ключевые слова: *сложное слово, определение, группа слов, сложное существительное, пара и повторение.*

This article comparatively studies compound nouns in Uzbek and German. During the research, the common and different aspects of compound words in the two languages were identified, and their morphological and semantic features were analyzed. In our study, we sought to conduct a comprehensive and in-depth analysis





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

of compound words. In particular, we did not ignore the word families from which they are composed, as well as the word families to which compound words that exist in a ready-made form belong. Our article provides brief information on this issue and the author's comments. In order to clarify the issue more clearly, the next section will be illustrated with direct examples.

Keywords: *Compound word, attributive, word group, compound noun, pair and repetition*

Har ikkala til – o‘zbek va nemis tillarida – qo‘shma so‘zlarning orfografik jihatlari muhim farqlarga ega. Adabiyotlarda qayd etilishicha, har ikkala tilda ham qo‘shib yoziladigan qo‘shma so‘zlar mavjud bo‘lsa-da, o‘zbek tilida bundan tashqari ajratib yoziladigan qo‘shma so‘zlar ham uchraydi. O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning yozilish shaklini belgilovchi alohida me‘yorlar ishlab chiqilgan: ba‘zi qo‘shma so‘zlar qo‘shib yozilsa, boshqalari ajratib yozilishi kerak. Nemis tilida esa qo‘shma so‘zlarni yozishda yagona qoida mavjud bo‘lib, ularning barchasi doimiy ravishda qo‘shib yoziladi. O‘zbek tilidagi qo‘shma so‘zlar bo‘yicha mavjud adabiyotlarni o‘rganish davomida bu tilga oid deyarli barcha so‘z turkumlarida qo‘shma so‘zlar mavjudligi aniqlandi. Bu esa ularning leksik va grammatik qamrovi kengligini ko‘rsatadi. [3] Ammo o‘zbek va nemis tillari o‘rtasidagi muhim farqlardan biri shundaki, o‘zbek tilida yozma shaklda ifodalangan sonlar, ayniqsa ko‘p xonali bo‘lsa, har bir komponent alohida yoziladi va alohida leksik birlik sifatida qabul qilinadi. Masalan, “bir ming to‘qqiz yuz to‘qson besh” (1995). Nemis tilida esa raqamlar butun shaklda, ya‘ni qo‘shib yoziladi: siebenhundertsiebenundsiebzig (777) – yettiyuzyetmishyetti tarzida. [4].

O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarning so‘z turkumlariga xosligi:

Ot – mingoyoq, o‘rinbosar;

Sifat – sheryurak, bodomqovoq;

Fe‘l – sotib olmoq, paydo bo‘lmoq;

Olmosh – hech kim;

Ravish – bir pasda, bir zumda.

O‘zbek tilida kompozitsiya usuli bilan qo‘shma otlar hosil qilinadi: toshko‘mir, tuyaqush, karnaygul, oybolta, sadarayhon, ko‘kqarg‘a, qoraqurt kabi. Nemis tilida qo‘shma otlar ham shunday tashkil topadi, biroq o‘zbek tilidan farqli ravishda nemis tilda qo‘shma otlar o‘rtasida qo‘shimcha (infiks) orttirilishi ko‘p kuzatiladi: Masalan, ‘Menschenmenge’ (Mensch + en + Menge), Landeskunde

O‘zbek tilida bunday holat nemis tiliga nisbatan kam uchramaydi (kun+ga+boqar). [6]

O‘zbek tilida qo‘shma so‘zlarni, xususan, qo‘shma sifatlarni so‘z birikmalaridan, ayniqsa sifatlovchi birikmalardan ajratib ko‘rsatish ancha murakkab bo‘lib, bu holat ayniqsa qo‘shma otlarni so‘z birikmasidan farqlashga nisbatan ko‘proq muammolarni yuzaga keltiradi. Chunki predmetning belgisini ifodalash faqat sodda yoki qo‘shma





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

sifatlar orqali emas, balki sifatlovchi birikmalar vositasida ham amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, qo'shma sifatlar bilan sifatlovchi so'z birikmalarini ajratishda qator grammatik va semantik noaniqliklarga sabab bo'ladi. [2]

Tilshunoslikda sifatlar tuzilishiga ko'ra uchta asosiy guruhga bo'linadi: sodda sifatlar, yasama sifatlar va qo'shma sifatlar. Aynan qo'shma sifatlar va sifatlovchi birikmalar ko'pincha tashqi shakl va mazmun jihatdan bir-biriga o'xshab ketgani sababli ularni ajratishda grammatik mezonlarga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi: sodda, qo'shma va juft.

Sodda sifatlar shaklan bir o'zakli yoki bir negizli yakka so'zlardan tashkil topadi. Bunda ular yakka o'zakdan iborat bo'ladi: a) oq, qora, yaxshi, yomon, zo'r, katta, keng b) biror affiks yordamida yasalgan yasama sifatdan iborat bo'ladi: bolali, ommaviy, uyatchang, suvsiz kabi.

Qo'shma sifatlar ikki yoki undan ortiq sifatlarning birikuvidan hosil bo'lgan sifatlar hisoblanadi. Qo'shma sifatlar bir bosh urg'u bilan aytilib, bir belgi-xususiyatni ifodalash uchun xizmat qiladi: och sariq, ko'p bolali, qalin qosh kabi.

Qo'shma sifatlar tuzilish jihatdan quyidagicha qismlardan iborat bo'ladi:

a) sifat + sifat to'q ko'k, ola qashqa, erka- arzanda, ijtimoiy- siyosiy, madaniy- ma'rifiy kabi;

b) sifat+ ot: ochiq ko'ngil, yalang oyoq(oyoq yalang), ochko'z, xushfe'l, sofdil, qora qosh kabi;

c) sifat+ ot + sifat yasovchi affiks: ko'k ko'zli, o'tkir zehqli, qizil bayroqli kabi;

d) ot+ ot: qo'y ko'z, sher yurak, tosh bag'ir, echki soqol, bodom qovoq kabi;

e) ot+ ot+ sifat yasovchi affiks: temir irodali, it fe'lli kabi;

f) ot+ sifatdosh: tinchliksevar, erksevar, ko'zilg'amas, ishyoqmas kabi;

g) ravish+ fe'l: ertapishar, kechpishar, tezoqar kabi;

h) son+ot+sifat yasovchi affiks to'rt bolali, ikki g'ildirakli, uch elementli;

i) ot + affiks+ bor (yo'q) so'zlari bahosi yo'q, tengi yo'q, aqli bor (yigit) va hokazolar. [3]

Juft sifatlar esa predmetning umumiy bir belgisini ifodalaydi, odadtda ikki soda sifatdan teng bog'lanish yo'li bilan yasaladi. Bunday sifatlar quyidagi yo'llar bilan hosil qilinadi:

1. Bir xildagi ikki sifatning takrorlanishidan: yaxshi-yaxshi, baland-baland, katta-katta, past-past va hk;

2. Ma'nodosh ikkita sinonimik sifatdan: qing'ir-qiyshiq, pishiq-puxta kabilar.

Qo'shma sifatlar bilan sifatlovchi birikmalarni bir-biridan farqlashda faqat ma'noni – predmetlik belgisini bildirishidagina emas, balki formani- grammatik belgini ham asosga olish kerak.

Fe'llardan ham xuddi shu usul orqali qo'shma fe'llar yasaladi. Qo'shma fe'llar komponentlarining qaysi turkumga oidligiga ko'ra ikki asosiy turga bo'linadi:





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

1. ot+fe'l tipidagi (fe'l bo'lmagan so'z bilan fe'lning birikishidan hosil bo'lgan) qo'shma fe'llar;

2. fe'l+fe'l tipidagi(ikki fe'lning o'zaro birikishidan hosil bo'lgan) qo'shma fe'llar: hurmat qilmoq, sotib olmoq kabi.

Mazkur qo'shma fe'llar qatnashgan misollarga qarang: Turg'un uni begonaday qarshi oldi. (H.N) Chevaringizni uydan chaqirib olishga kuchimiz yetmaydi, o'zingiz ruxsat oberasiz-da opoqingizdan.(H.N)

Ot+fe'l tipidagi qo'shma fe'llarning ko'pgina qismini qilmoq, aylamoq, etmoq yoki bo'lmoq fe'llarining birikishidan hosil bo'lgan bayon qilmoq, kashf etmoq, tipidagi birikuvlar tashkil etadi.

Fe'l bo'lmagan so'zning qilmoq, aylamoq, etmoq fe'li bilan birikishidan har vaqt qo'shma fe'l hosil bo'lavermaydi. Bunday birikuvlarda qilmoq, aylamoq, etmoq yoki bo'lmoq fe'llari bog'lama vazifasida qo'llanilishi mumkin. Ular bunday vazifada qo'llanganda qo'shma fe'l hosil qilmaydi. Qiyoslang : o'qituvchi edi- o'qituvchi bo'ladi. Bunda o'qituvchi bo'ladi birikuvi qo'shma fe'l emas, chunki o'quvchi va bo'l so'zlarining birikishidan yangi so'z (qo'shma so'z) hosil bo'layotgani yo'q. Tasdiq qildi, tasdiq bo'ldi birikuvlari esa qo'shma fe'l hisoblanadi. Bunda qil va bo'l fe'llarini –la va –lan affikslari bilan almashtirish mumkinligi aniq ko'rsatadi: tasdiq qildi-tasdiqladi, tasdiq bo'ldi-tasdiqlandi.

O'zbek tilida ikki fe'lning o'zaro birikishidan hosil bo'luvchi qo'shma fe'llar u qadar ko'p emas. Ular ham o'z tarkibidagi komponentlari ma'nosidan farqli bo'lgan yangi ma'no ifodalaydi: olib kelmoq, sotib olmoq kabi: Hamma qo'lini yuziga olib borib, omin qildi.(Sh.Sa'dulla.)

Urushdan qochgan askarlardan qurol-yarog' sotib olib, bosqinchilik qilishgacha borib yetiptilar.(I. Sodiqov.)

Chumchuq o'zini opqochib, pirt etib olg'a uchdi-da, nim qorong'u yo'lakka kirib ketti.(Sh.Sa'dulla.)

Shu ma'noda agar nemis tilidagi qo'shma fe'llarga izoh beradigan bo'lsak, ular predlog+ fe'l va boshqa tipdagi ko'rinishlarda bo'ladi va qo'shma fe'llar gapda bir qismi kesim o'rnida egaga mos tuslanib ikkinchi o'rinda kelsa, ikkinchi qismi gap oxirida keladi. Masalan: (teil'nehmen) Ich nehme heute am Wettbewerb teil (Präsens). Bu holat tildagi zamonlarga qarab o'zgaradi

Predlog+ fe'l- aufnehmen, nachsprechen, zuhören;

Ravish+ fe'l- weitergehen, fortfahren;

Sifat + fe'l -freisprechen, stillstehen;

Ot + fe'l - teilnehmen, stattfinden;

Son + fe'l vierteilen, sechsteilen.

O'zbek tilida qo'shma so'zlarning o'rganilishi borasida ayrim holatlarda izchil yondashuv yetishmayotgani kuzatiladi. Chunonchi, ba'zi til birliklari turli manbalarda gohida qo'shma so'z, gohida esa so'z birikmasi sifatida talqin qilinishi aniqlanadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Masalan, kitobiy uslubda keng qo'llaniladigan "so'z boshi" iborasi "O'zbek tili izohli lug'ati"ning 1981-yilda chop etilgan ikki jildli nashrida ajratib yozilgan va so'z birikmasi sifatida izohlangan. Shu ibora 2006-yilda nashr etilgan kengaytirilgan besh jildli tahrirda esa qo'shib yozilgan va qo'shma so'z sifatida keltirilgan.

Mazkur holat – o'zbek tili va tilshunosligi tarixida muhim ilmiy va ijtimoiy hodisa sifatida e'tirof etilgan, yurtimiz madaniy-ma'rifiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, so'z boyligimizni aks ettiruvchi akademik lug'at – ya'ni "O'zbek tili izohli lug'ati"da til birliklarining izohlanishi va yozilishi borasida bir xillik yetishmasligini ko'rsatadi. Bu lug'atda qariyb 100 mingga yaqin so'z va so'z birikmasining imlo, talaffuz va semantik xususiyatlari aks ettirilgan bo'lsa-da, yuqoridagi kabi ayrim iboralarning yozilishida izchil yondashuvning yo'qligi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, "jild"larning kirish so'zlarida bir safar qo'shib, boshqa safar ajratib yozilishi, har ikki holatda ham bu tanlovning sabablarini izohlovchi tushuntirishlarning keltirilmagani aniq ilmiy asos yetishmasligini ko'rsatadi.

Shu boisdan, bu kabi masalalar o'zbek tilshunosligi doirasida keng ilmiy tahlil etilishi, qo'shma so'zlar bilan so'z birikmalari o'rtasidagi farqlar aniqlangan holda, ularning yozilish shakllariga izchil va asosli yondashuv ishlab chiqilishi lozim, deb hisoblaymiz.

ADABIYOTLAR

O'zbek tili adabiyotlari

1. I. A. Karimov, "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", Toshkent Ma'naviyat-2008. 83,87b.
2. E. Qilichev, "Hozirgi o'zbek adabiy tili: o'zbek filologiyasi bakalavr ixtisosligi uchun qo'llanma – Buxoro, 2005. – 136b.
3. N. Erkaboyeva, "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami", Toshkent: "Akademnashr"- 2015. 133,199b.

Nemis tillari adabiyotlari

4. A. Iskos, A. Lenkova, "Deutsche Lexikologie", Leningrad- 1970. 91
5. X. A. Lewkowskaya, "Lexikologie der deutschen Gegenwartssprache"
6. Duden „Deutsches Universal Wörterbuch“ Berlin. 2015, 8. Auflage

